INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION: THE EFFECTIVENESS OF MASTER CLASSES AND OPEN LESSONS

Jolimbetova Azizaxan

English Language Teacher, Nukus Advanced Vocational Skills Technical School

“ZAMONAVIY TA‘LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: MASTER-KLASS VA OÇIQ DARSLAR SAMARADORLIGI”

Jolımbetova Azizaxan
Nukus ilğor kasbiy-mahorat texnikumi ingliz tili öqituvçisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta‘lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qöllaş, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiriş hamda ta‘lim jarayonining samaradorligini oşirişda master-klass va oçiq darslarning örni va ahamiyati keng yoritiladi. Xususan, kasbiy ta‘lim muassasalarida zamonaviy pedagogik yondaşuvlarni amaliyotga tatbiq etiş, öqituvçilar örtasida ilğor tajriba almaşiş, interaktiv metodlardan foydalaniş va raqamli ta‘lim resurslarini öquv jarayoniga integratsiya qiliş masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Maqolada master-klasslarning pedagogik tajribani ommalaştiriş, öqituvçilarning metodik tayyorgarligini takomillaştiriş, ijodiy izlanişlarini rağbatlantiriş va yangi pedagogik texnologiyalarni özlaştirişdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Şuningdek, oçiq darslarni taşkil etişning metodik asoslari, dars jarayonida interaktiv ta‘lim vositalaridan foydalaniş, öquvçilarning mustaqil fikrlaşi, kommunikativ kompetensiyasi, ijodkorligi va ta‘lim faoliyatidagi faolligini rivojlantirişga xizmat qiluvçi samarali usullar yoritiladi.

Annotation: This article extensively highlights the role and significance of masterclasses and open lessons in applying innovative pedagogical technologies in the modern education system, developing teachers' professional competence, and increasing the efficiency of the educational process. In particular, special attention will be paid to the implementation of modern pedagogical approaches in vocational education institutions, the exchange of best practices among teachers, the use of interactive methods, and the integration of digital educational resources into the educational process. The article analyzes the possibilities of masterclasses in popularizing pedagogical experience, improving teachers' methodological training, stimulating creative research, and mastering new pedagogical technologies. It also highlights the methodological foundations of organizing open lessons, the use of interactive educational tools during the lesson, and effective methods that serve to develop students' independent thinking, communicative competence, creativity, and activity in educational activities.

Kalit sözlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar, master-klass, oçiq dars, kasbiy ta‘lim,

raqamli ta‘lim, interaktiv metodlar, pedagogik mahorat, metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, raqamli platformalar, ta‘lim samaradorligi, tajriba almaşiş.
Key words: innovative pedagogical technologies, master class, open lesson, vocational education, digital education, interactive methods, pedagogical mastery, methodological competence, communicative competence, digital platforms, educational effectiveness, exçange of experience.

XXI asrda jahon ta‘lim tizimida yuz berayotgan tub özgarişlar, globallaşuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanişi va raqamli transformatsiya ta‘lim mazmuni hamda uni taşkil etiş şakllarini takomillaştirişni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ta‘lim muassasalari oldida nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondaşadigan, muammoli vaziyatlarda töğri qaror qabul qila oladigan va öz kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan raqobatbardoş mutaxassislarni tayyorlaş vazifasi turibdi. Bunday şaroitda ta‘lim sifatini belgilovçi asosiy omillardan biri pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi, innovatsion fikrlaşi va zamonaviy pedagogik yondaşuvlarni amaliyotga tatbiq eta oliş qobiliyatidir. Ta‘lim jarayonining samaradorligi köp jihatdan öqituvçining darsni qanday taşkil etişi, öquvçilar bilan qay darajada samarali muloqot örnatişi, öquv materiallarini tuşuntirişda qanday metod va vositalardan foydalanişi bilan belgilanadi. An‘anaviy ta‘lim yondaşuvlarida asosiy e‘tibor köproq öqituvçining bilim beriş faoliyatiga qaratilgan bölsa, zamonaviy ta‘lim paradigmasida öquvçi şaxsini ta‘lim jarayonining faol iştirokçisiga aylantiriş ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa pedagogdan öquvçilarning individual xususiyatlari, qiziqişlari, bilim darajasi va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta‘lim jarayonini loyihalaştirişni talab qiladi. Ayniqsa, kasbiy ta‘lim muassasalarida mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Çunki kasbiy ta‘limning asosiy maqsadi öquvçilarga muayyan kasb yoki mutaxassislik böyiça nazariy bilim beriş bilan çeklanmay, ularni real mehnat faoliyatiga tayyorlaş, amaliy könikmalarini rivojlantiriş va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni şakllantirişdan iborat. Şu sababli kasbiy ta‘lim jarayonida fanlararo integratsiya, amaliy topşiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat va interaktiv ta‘lim metodlaridan foydalaniş muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda pedagoglarning kasbiy rivojlanişini ta‘minlaş, ularning metodik tajribalarini boyitiş va ilğor pedagogik yondaşuvlarni ommalaştirişda master-klasslar hamda oçiq darslar samarali metodik faoliyat şakllari sifatida namoyon bölmoqda. Master-klass pedagogning öz amaliy tajribasi, mualliflik metodikasi, innovatsion ğoyalari va samarali ta‘lim usullarini boşqa pedagoglar bilan baham köriş imkonini beradi. Uning asosiy xususiyati şundaki, iştirokçilar faqat nazariy ma‘lumotlarni tinglaş bilan çeklanmay, balki amaliy jarayonda bevosita qatnaşiş, yangi metodlarni sinab köriş va ularni öz faoliyatiga tatbiq etiş imkoniyatiga ega böladilar. Oçiq darslar esa pedagogning kasbiy va metodik mahoratini namoyiş etiş, ta‘lim jarayonida qöllanilayotgan metodlarning samaradorligini kuzatiş, tahlil qiliş va baholaş uçun muhim imkoniyat yaratadi.

Oçiq darslar davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv maşqlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va öquvçilarning mustaqil faoliyatini taşkil etişga yönaltirilgan topşiriqlardan foydalaniş mumkin. Bunday maşğulotlar pedagoglar örtasida özaro fikr almaşiş, metodik kamçiliklarni aniqlaş va ta‘lim jarayonini takomillaştirişga xizmat qiladi. Ta‘lim tizimining raqamlaştirilişi pedagogik faoliyatga yangi imkoniyatlar olib kirmoqda. Xususan, raqamli ta‘lim platformalari, elektron resurslar, onlayn testlar, interaktiv öyinlar va multimedia vositalari dars jarayonini yanada qiziqarli, tuşunarli va samarali taşkil etişga yordam bermoqda. Wordwall, Educaplay, Edugames, soffia.uz va darsli.uz kabi platformalar öqituvçilarga turli didaktik materiallar yaratiş, öquvçilarning bilimini tezkor baholaş, jamoaviy topşiriqlar taşkil etiş hamda ta‘lim jarayoniga öyin elementlarini integratsiya qiliş imkonini beradi. Mazkur vositalardan maqsadli foydalaniş öquvçilarning darsga bölgan qiziqişini oşiriş bilan birga, ularning mustaqil işlaş, tezkor fikrlaş, axborotni tahlil qiliş va muammolarni hal etiş könikmalarini rivojlantirişga ham yordam beradi. Ayniqsa, xorijiy tillarni öqitişda innovatsion yondaşuvlardan foydalaniş muhim hisoblanadi. Çunki til örganiş jarayoni faqat grammatik qoidalar va luğat birliklarini yodlaşdan iborat emas, balki örgangan bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda qöllay olişni ham talab etadi. Şu nuqtayi nazardan, ingliz tili darslarida kommunikativ metod, rolli öyinlar, guruhli işlaş, muammoli topşiriqlar, speaking cards, interaktiv viktorinalar va raqamli maşqlardan foydalaniş öquvçilarning tinglab tuşuniş, gapiriş, öqiş va yoziş könikmalarini kompleks rivojlantirişga xizmat qiladi. Bundan taşqari, kasbiy ta‘lim muassasalarida ingliz tilini öqitişda öquvçilarning kelajakdagi mutaxassisligi bilan boğliq leksik birliklar va kommunikativ vaziyatlardan foydalaniş alohida ahamiyatga ega. Masalan, avtomobilsozlik va texnik xizmat körsatiş yönalişida tahsil olayotgan öquvçilar uçun avtomobil qismlari, texnik jihozlar, ta‘mirlaş jarayonlari va kasbiy muloqotga oid inglizça atamalarni örgatiş til ta‘limining amaliy ahamiyatini oşiradi. Bunday yondaşuv öquvçilarga xorijiy tilni nafaqat umumiy muloqot vositasi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida özlaştiriş imkonini beradi.

Nukus ilğor kasbiy mahorat texnikumida ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etiş, pedagoglarning metodik tajribalarini boyitiş va interaktiv ta‘lim usullaridan foydalaniş masalalari muhim metodik yönalişlardan biri hisoblanadi. Uşbu yönalişda taşkil etiladigan master-klasslar va oçiq darslar pedagoglarning özaro tajriba almaşişi, yangi raqamli vositalarni özlaştirişi va samarali metodlarni amaliyotda sinab körişi uçun qulay şaroit yaratadi. Xususan, ingliz tili fanidan taşkil etilgan oçiq darslarda grammatik mavzularni kasbiy yönaliş bilan boğlaş, interaktiv öyinlar orqali bilimlarni mustahkamlaş va öquvçilarni faol muloqotga jalb etiş zamonaviy ta‘lim yondaşuvlarining amaliy namunasidir. Mazkur mavzuning dolzarbligi şundaki, bugungi kunda pedagogik faoliyatda innovatsion metodlardan foydalaniş zarurati tobora ortib bormoqda. Biroq har qanday yangi texnologiya yoki metodning samaradorligi uning mavjudligi bilan emas, balki pedagog tomonidan töğri tanlanişi, dars maqsadiga muvofiq qöllanilişi va öquvçilarning ehtiyojlariga moslaştirilişi

bilan belgilanadi. Şu bois master-klass va oçiq darslar orqali pedagogik tajribalarni amaliy jihatdan namoyiş etiş, ularni tahlil qiliş va takomillaştiriş alohida ilmiy-metodik ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi – zamonaviy ta‘lim jarayonida master-klass va oçiq darslarning pedagogik imkoniyatlarini örganiş, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta‘lim platformalaridan foydalanişning samarali jihatlarini yoritiş hamda ularni kasbiy ta‘lim amaliyotiga tatbiq etiş böyiça metodik yondaşuvlarni asoslaşdan iborat. Uşbu maqsadga erişiş uçun quyidagi vazifalar belgilandi:

- master-klass va oçiq darslarning ta‘lim tizimidagi pedagogik ahamiyatini yoritiş; -pedagoglarning kasbiy va metodik kompetensiyasini rivojlantirişda tajriba almaşişning örnini aniqlaş;
- zamonaviy raqamli platformalar va interaktiv ta‘lim vositalarining imkoniyatlarini tahlil qiliş;
- ingliz tili darslarida kommunikativ va interaktiv metodlardan foydalanişning amaliy jihatlarini körsatiş;
- kasbiy ta‘lim yönalişidagi fanlarni öqitişda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan boğlaş imkoniyatlarini yoritiş;
- innovatsion pedagogik yondaşuvlarni ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq etiş böyiça metodik tavsiyalar işlab çiqiş.

Zamonaviy ta‘lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanişini ta‘minlaş, ularning metodik bilim va könikmalarini muntazam takomillaştirib boriş ta‘lim sifatini oşirişning muhim şartlaridan biridir. Bu jarayonda master-klasslar alohida ahamiyatga ega. Master-klass pedagogning öz tajribasi, metodik işlanmalari, innovatsion ğoyalari va amaliy faoliyatida qöllayotgan samarali usullarini boşqa pedagoglar bilan örtoqlaşişiga imkon beruvçi interaktiv metodik tadbir hisoblanadi. Master-klassning an‘anaviy seminar va ma‘ruzalardan asosiy farqi şundaki, unda nazariy ma‘lumotlar amaliy namoyiş va faol iştirok bilan uyğunlaşadi. Iştirokçilar yangi metodlarning qanday işlaşini kuzatiş bilan birga, ularni bevosita sinab köriş, öz faoliyatiga moslaştiriş va natijalarini tahlil qiliş imkoniyatiga ega böladilar.

Pedagogik master-klasslarni taşkil etişda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratiş lozim:

- tadbirning aniq maqsad va vazifalarini belgilaş;
- namoyiş etiladigan metod va texnologiyalarni oldindan tanlaş;
- nazariy tuşuntirişni amaliy maşğulotlar bilan uyğunlaştiriş;
- iştirokçilarni faol jarayonga jalb etiş;
- olingan tajribalarni muhokama qiliş va tahlil etiş;
- yangi metodlarni ta‘lim amaliyotiga tatbiq etiş böyiça tavsiyalar işlab çiqiş.

Nukus ilğor kasbiy mahorat texnikumida taşkil etilgan master-klassda aynan şu yondaşuvlardan foydalanişga alohida e‘tibor qaratildi. Tadbir davomida raqamli ta‘lim

platformalari, elektron öyinlar, interaktiv maşqlar va zamonaviy metodik vositalarning imkoniyatlari amaliy tarzda namoyiş etildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanişi pedagogik faoliyat mazmunini ham özgartirmoqda. Bugungi kunda öqituvçi faqat darslik va an‘anaviy körgazmali materiallar bilan çeklanib qolmasdan, turli raqamli resurslar yordamida ta‘lim jarayonini yanada samarali taşkil etişi mumkin. Master-klass davomida bir neçta raqamli ta‘lim platformalaridan foydalaniş imkoniyatlari körsatib berildi. Educaplay platformasi turli interaktiv maşqlar, krossvordlar, moslaştiriş topşiriqlari, söz qidiriş öyinlari va viktorinalar yaratiş imkonini beradi. Uşbu platforma yordamida öquvçilarning yangi mavzu böyiça bilimlarini mustahkamlaş va özlaştiriş darajasini tekşiriş mumkin. Wordwall platformasi dars jarayonida foydalaniş uçun turli didaktik öyinlar va interaktiv maşqlar yaratişda qulay vositalardan biridir. Unda sözlarni moslaştiriş, töğri javobni tanlaş, böş joylarni töldiriş, tasodifiy savollar va boşqa topşiriqlarni taşkil etiş mumkin. Ayniqsa, grammatik mavzularni mustahkamlaşda uşbu platformaning imkoniyatlari katta. Edugames platformasi ta‘lim mazmunini öyin elementlari bilan boyitişga yordam beradi. Öquvçilar topşiriqlarni bajariş davomida musobaqalaşiş, natijaga erişiş va jamoa bilan hamkorlik qiliş imkoniyatiga ega böladilar. Bu esa dars jarayonida soğlom raqobat va motivatsion muhitni şakllantiradi. soffia.uz va darsli.uz platformalari esa pedagoglarga raqamli ta‘lim resurslari va elektron materiallardan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiradi. Uşbu vositalar darsni rejalaştiriş, öquv materiallarini taqdim etiş va ta‘lim jarayonini zamonaviy şaklda taşkil etişda yordam berişi mumkin. Raqamli platformalardan foydalanişning asosiy afzalligi şundaki, ular öquvçilarning faolligini oşiriş, topşiriqlarni turli şakllarda taqdim etiş va bilimlarni mustahkamlaş imkonini beradi. Biroq platformalardan foydalanişda ularning dars maqsadiga muvofiqligi, öquvçilarning bilim darajasi va texnik imkoniyatlar hisobga olinişi zarur. Ta‘lim jarayonida öyin elementlaridan foydalaniş öquvçilarning bilim olişga bölgan içki motivatsiyasini kuçaytiruvçi samarali yondaşuvlardan biridir. Ayniqsa, kasbiy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan öquvçilar uçun musobaqa, jamoaviy topşiriqlar va amaliy faoliyatga asoslangan maşğulotlar katta qiziqiş uyğotişi mumkin. Interaktiv öyinlar öquvçilarning faqat bilimlarini tekşiriş vositasi emas, balki ularning muloqot qiliş, tezkor fikrlaş, muammoli vaziyatlarni hal etiş va hamkorlikda işlaş könikmalarini rivojlantiriş vositasi hamdir. Master-klass davomida turli elektron va an‘anaviy didaktik öyinlardan foydalaniş usullari namoyiş etildi. Jumladan, elektron doskada taşkil etiladigan jamoaviy musobaqalar, mantiqiy topşiriqlar, yaşirin sözlarni topiş, savol-javob va mavzuga moslaştirilgan öyinlar pedagogik jarayonni jonlantirişga xizmat qiladi. Bunday metodlarning muhim jihati şundaki, ular öquvçilarni passiv tinglovçidan faol iştirokçiga aylantiradi. Öquvçi topşiriqni bajariş, öz javobini asoslaş va jamoasi bilan fikr almaşiş orqali bilimlarni faol özlaştiradi.

2026-yil 9-oktyabr kuni Nukus ilğor kasbiy mahorat texnikumida pedagog xodimlarning kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantiriş, ta‘lim jarayoniga zamonaviy pedagogik

yondaşuvlarni keng tatbiq etiş hamda ilğor tajribalarni ommalaştiriş maqsadida Jolimbetova Azizaxan va Tolibaeva Albina tomonidan “Pedagogik faoliyatda foydalaniladigan zamonaviy metodlar” mavzusida master-klass taşkil etildi. Mazkur master-klassning asosiy maqsadi pedagoglarni ta‘lim jarayonida qöllaş mumkin bölgan zamonaviy metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta‘lim vositalari bilan taniştiriş, ularning amaliy imkoniyatlarini namoyiş etiş hamda öqituvçilarda darslarni yanada samarali va interaktiv taşkil etiş könikmalarini rivojlantirişdan iborat böldi. Master-klass davomida bugungi ta‘lim tizimida an‘anaviy öqitiş usullarini zamonaviy interaktiv metodlar bilan uyğunlaştiriş zarurati alohida ta‘kidlandi. Çunki zamonaviy pedagogik jarayonda öquvçi faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvçi emas, balki mustaqil izlanadigan, fikr bildiradigan, muammoli vaziyatlarni tahlil qiladigan va öz bilimlarini amaliyotda qöllay oladigan faol iştirokçi sifatida şakllanişi lozim. Tadbirning amaliy qismida pedagogik faoliyatda foydalaniş mumkin bölgan turli interaktiv metodlar va didaktik öyinlar namoyiş etildi. Xususan, öquvçilarning mantiqiy fikrlaşini rivojlantiriş, diqqatini jamlaş, jamoada işlaş, tezkor qaror qabul qiliş va mavzuni mustahkamlaşga qaratilgan metodlarga alohida e‘tibor qaratildi. Şuningdek, elektron doska va raqamli ta‘lim platformalaridan foydalaniş imkoniyatlari körsatib berildi. Educaplay, Wordwall, Edugames, soffia.uz va darsli.uz kabi platformalar orqali interaktiv topşiriqlar, elektron maşqlar, viktorinalar, testlar va turli didaktik öyinlarni taşkil etiş usullari amaliy misollar yordamida tuşuntirildi. Bunda raqamli vositalardan foydalanişning asosiy maqsadi şunçaki darsni texnologiyalar bilan boyitiş emas, balki öquvçilarning bilim oliş jarayonidagi faolligini oşiriş, öquv materiallarini özlaştirişni yengillaştiriş va ta‘lim natijadorligini yaxşilaş ekanligi ta‘kidlandi. Master-klassning muhim jihatlaridan biri uning amaliy yönalişga ega bölganidir. Iştirokçilar taqdim etilgan metodlarning qöllaniliş jarayoni bilan tanişiş, ularning didaktik imkoniyatlarini kuzatiş va öz fanlari misolida foydalaniş yöllarini örganiş imkoniyatiga ega böldilar. Bu esa turli fan öqituvçilari uçun yangi metodik ğoyalar va ijodiy yondaşuvlarni şakllantirişga zamin yaratdi. Tadbir davomida zamonaviy pedagogik metodlarni tanlaşda fan xususiyati, darsning maqsadi, öquvçilarning yoşi, bilim darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga oliş zarurligi ham qayd etildi. Har qanday interaktiv metod yoki raqamli platforma ta‘limiy maqsadga muvofiq tanlangan taqdirdagina kutilgan natijani berişi mumkin. Mazkur master-klass pedagoglar örtasida metodik tajriba almaşiş, özaro hamkorlikni mustahkamlaş va innovatsion ta‘lim muhitini şakllantiriş nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, namoyiş etilgan metodlarning turli fanlar va kasbiy yönalişlarga moslaştirilişi mumkinligi ularning amaliy qiymatini yanada oşirdi. Umuman olganda, Jolimbetova Azizaxan va Tolibaeva Albina tomonidan 2026-yil 9-oktyabr kuni taşkil etilgan “Pedagogik faoliyatda foydalaniladigan zamonaviy metodlar” mavzusidagi master-klass pedagoglarning kasbiy rivojlanişiga, zamonaviy metodik yondaşuvlarni özlaştirişiga va ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanişiga xizmat qiluvçi muhim metodik tadbir

sifatida e‘tirof etilişi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998.
7. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
8. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018.
9.https://drive.google.com/file/d/1aXwHTYJdz_Qvn6fwA2ko4fHiCFXu_PqQ/view?usp=drivesdk
10.https://drive.google.com/file/d/1N7OkgNiI8k5x6fBqRcQr8OAWQLyyRQD/view?usp=drivesdk